

Jahon va moliya bozorlariga oid sharh


15 sentabr, 2025 yil



Bankni strategik rivojlantirish
departamenti

SQB, Ipoteka va NBU evrobondlarining daromadliligi (2025-yil 1 yanvar-15 sentabr, Bloomberg ma'lumotlariga ko'ra)

UzSQB, Ipoteka banki va O'zmilliybank evrobondlarining daromadliligi, foizlarda




- 2024-yilning yozida SQB Londondagi fond birjasida xalqaro obligatsiyalarni joylashtirdi. Savdolarning birinchi kunida ularning daromadliligi 9,362%ni tashkil etdi.
- SQB obligatsiyalarining daromadliligi o'tgan hafta boshida 6,704% darajasiga yetdi. Haftaning oxiriga kelib esa bu ko'rsatkich pasaydi va 6,639% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon daromadlilik 6,623% – 9,126% gacha o'zgarib turdi.
- O'tgan hafta NBU evrobondlarining daromadliligi 6,452% darajasida bo'lgan. Haftaning yakunida daromadlilik pasayib 6,426% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon bu ko'rsatkich 6,414-8,878% gacha o'zgarib turdi.
- O'tgan hafta Ipotekabank evrobondlarining daromadliligi 6,6% darajasida bo'ldi. Biroq, haftaning oxiriga kelib daromadlilik pasaydi va 6,195% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon daromadlilik 5,962% – 8,533% gacha o'zgarib turdi.

SOFR va Euribor


AQSH va Yevropadagi banklararo kreditlar bo'yicha o'rtacha foiz stavkasi

SOFR dinamikasi




Yil boshidan buyon SOFR stavkasi 4,26-4,49% atrofida barqaror bo'lib turmoqda. Haftaning boshida SOFR stavkasi 4,10% ni tashkil etdi, haftaning oxiriga kelib esa u biroz ko'tarilib, 4,41% ga yetdi. Bu bozor likvidligi va monetar siyosatdagi kutilmalarning o'zgarishlarini ko'rsatadi. Federal rezervning foiz stavkalari bo'yicha pozitsiyasi SOFR stavkasi darajasini belgilashda davom etmoqda. Siyosiy o'zgarishlar kutilmalari stavkada kichik o'zgarishlarga olib kelishi mumkin.


Euribor dinamikasi



Euribor kutilganidan tezroq pasaymoqda. Yevropa Markaziy banki foiz stavkasini tez sur'atlar bilan kamaytirishni davom ettirmoqda. Buning sabablaridan biri – inflyatsiyaning pasayishi. Yevropadagi ko'plab ipoteka kreditlari bog'langan Yevropa banklararo stavkasi (Euribor) o'tgan haftaning boshiga kelib 2,000% (3 oylik) va 2,108% (6 oylik) darajalariga tushdi. 2023-yilning oktyabr o'rtalarida foiz stavkasi 4% dan oshgan edi. Euribor stavkasining tarixdagi eng yuqori darajasi 2008-yilning qishida qayd etilgan bo'lib, u deyarli 5,5% ni tashkil etgan. Yil boshidan buyon maksimal ko'rsatkichlar 2,685% (6 oylik) va 2,789% (3 oylik) ni tashkil etdi.




O'zbekiston Respublikasi valyuta birjasidagi savdo hajmi, mln dollar



- ✓ O'tgan hafta valyuta birjasidagi savdo **816,4** million dollarni tashkil etdi, bu o'tgan haftaning savdo hajmiga nisbatan **142,8** million dollarga kamroq.
- ✓ O'tgan haftaning boshida milliy valyutaning dollarga nisbatan maksimal kursi **12 439** so'mni tashkil etdi, keyin haftaning oxiriga kelib pasayib **12 426** so'mga yetdi.
- ✓ Har yili so'm o'rtacha **3,5-4,5%** ga devalvatsiyaga uchraydi, 2023-yildan tashqari (**9,77%**), bu holat Rossiya valyutasi devalvatsiyasi eksport tushumlari kamayishi va mehnat migrantlarining pul o'tkazmalari bilan bog'liq edi. Joriy yil boshidan buyon revalvatsiya **3,70%** ni tashkil etdi.

Dollarning so'mga nisbatan almashinish kursi




15.09.2025 yil holatiga ko'ra, aholi uchun dollar sotib olishda eng foydali kurs **TBC** bankda qayd etilgan – **12 426** so'm. Boshqa banklarda esa kurs **12 430–12 485** so'm atrofida o'zgarib turdi.



Aholi uchun dollar sotish bo'yicha eng foydali kurs **Agro bank**da qayd etilgan – **12 380** so'm. Boshqa ko'plab banklarda esa kurs **12 370 –12 285** so'm atrofida bo'lgan.


USD-RUB dinamikasi



➤ Dollar rublga nisbatan ko'tarilmoqda

Hafta davomida dollarning Rossiya rubliga nisbatan kursi ishonchli ravishda o'sdi. 8 sentabr kuni 1 dollar 82,8 rubl bo'lsa, 11 sentabrga kelib kurs 85,9 rublga ko'tarildi, so'ngra biroz pasayib, 85,2 rubl darajasiga tushdi. Dollar qadri oshishining asosiy sababi Rossiya iqtisodiyotiga nisbatan sanksiyalar bosimi kuchayishi hamda AQSh va Yevropa Ittifoqining sanksiyalarni keskinlashtirishi tufayli geosiyosiy tanglikning ortishi bo'ldi. Shuningdek, jahon bozorlaridagi noma'lumlik va AQSh FRShning pul-siyosatini o'zgartirish kutilmasi fonda rublga bo'lgan talabning zaiflashishi ham qo'shimcha ta'sir ko'rsatdi.


RUB-YUAN dinamikasi



➤ Rubl yuan oldidagi pozitsiyalarini yo'qotmoqda

2025 yil 8 sentabrdan 12 sentabrgacha rubllarning Xitoy yuani oldidagi kursi 11,2 rubldan 11,9 rublgacha oshdi. Bu Rossiya valutasining Xitoy valutasiga nisbatan zaiflashayotganini ko'rsatadi. Kursning o'sishi xalqaro bozorlardagi umumiy noma'lumlik va Rossiya iqtisodiyotiga bo'lgan sanksiyalar bosimi bilan bog'liq. Bundan tashqari, energiya resurslari narxlarining o'zgaruvchanligi va xom ashyo talabidagi tebranishlar valyuta o'zgaruvchanligini kuchaytirdi.

EUR-USD dinamikasi




➤ EUR/USD tor diapazonda tebranmoqda

2025 yil 8 sentabrdan 12 sentabrgacha Yevro va AQSh dollari kursi nisbatan barqaror bo'lib, 1,174–1,178 atrofida kichik tebranishlar kuzatildi. Haftaning boshida kurs 1,1765 ni tashkil qilgan, 9 sentabrda 1,1779 ga ko'tarilgan va 12 sentabrgacha biroz pasayib, 1,1747 ga tushgan. Bunday mo'tadil o'zgaruvchanlik bir necha omillarning uyg'unligidan kelib chiqadi. Bir tomondan, Yevrozonada iqtisodiy ko'rsatkichlar mo'tadil bo'lib, euro uchun keskin harakatlarga turtki bermaydi. Boshqa tomondan, bozor AQSh Federal rezerv tizimining yaqinlashayotgan yig'ilishi natijalariga e'tibor qaratgan, unda foiz stavkalarining kamayishi kutilmoqda.

Asosiy xom ashyo tovarlari narxlariga oid tahlil


Oltin narxlarini dinamikasi
(bir untsiya uchun,
AQSh dollarida)



- Oltin narxlarini tarixda birinchi marta \$3642 darajasidan oshdi

Spot narxi rekord yangilab, deyarli \$3642,6 ga yetdi. AQShda ish bilan ta'minlash bo'yicha zaif ma'lumotlar e'lon qilingach, bozor Federal zahira tizimining (FRS) yaqin majlisida foiz stavkalarini pasaytirishiga deyarli shubha qilmayapti. Tramp ma'muriyati oltin lingotlarini boshqa davlatlarga nisbatan boj to'lovlaridan ozod qildi — xuddi volfram, uran, grafit va boshqa bir qator metallar kabi. Bu o'zgarishlar AQSh bojxona xizmati qarori tufayli oltin lingotlari kutilmagan holda boj to'lovlariga tortilgach kiritildi. Shu bilan birga, Xitoy Xalq banki avgust oyida oltin zaxiralarini oshirdi va o'n oy davomida uzluksiz xaridlarni davom ettirdi. Shu tarzda Xitoy regulyatori zaxiralarini diversifikatsiya qilib, AQSh dollariga qaramlikni kamaytirishga harakat qilmoqda.


Brent nefti narxlarini dinamikasi
(bir barrel uchun,
AQSh dollarida)



- Isroilning HAMAS liderlariga zarbasi va AQShning yangi sanksiya tahdidlari ortidan neft narxlarini oshmoqda

2025-yil 10-sentabrda neft narxlarini ikki muhim voqea ta'sirida ko'tarildi. Birinchidan, Isroil Dohadagi binoga aviatzarba berdi, u yerda HAMAS liderlari joylashgan edi, bu esa tinchlik muzokaralarini xavf ostiga qo'ydi. Ikkinchidan, Donald Tramp Rossiya neftining importiga Yevropa Ittifoqidan yuqori bojlar joriy etishni talab qilib, Moskvaga nisbatan sanksiyalar bosimini kuchaytirdi. Biroq, narxlarning o'sishi bozordagi umumiy zaiflik va AQShning bunday zarbalar takrorlanmasligi haqida bergan kafolatlari sabab biroz cheklangan bo'ldi. Tahlilchilar ta'kidlaydiki, ayniqsa yirik importyor davlatlarga qarshi sanksiyalarni kengaytirish global taklifni qisqartirishi va narxlarni qo'llab-quvvatlashi mumkin, biroq juda agressiv chora-tadbirlar inflyatsiyaga qarshi kurashni qiyinlashtirishi va Federal zahira tizimining foiz stavkalarini pasaytirish rejasiga to'siq bo'lishi mumkin.

TTF gaz narxlarini dinamikasi
(megavatt-soat uchun,
AQSh dollarida)



- Yevropada gaz narxlarini oshmoqda

Hafta boshida Buyuk Britaniya va Niderlandiyada gazning ulgurji narxlarini ishonch bilan oshdi. Sovuqlash va shamol energiyasining kamayishi gazga bo'lgan talabni kuchaytirmoqda, bu esa narxlarning o'sishini ta'minlamoqda. Ta'minotdagi cheklovlar BBL gaz quvuri texnik xizmat ko'rsatishi bilan bog'liq bo'lib, u Buyuk Britaniyadan eksportni kamaytirmoqda, shuningdek, LNG terminalaridan yetkazib berishlar kamaymoqda. Bundan tashqari, AQSh prezidenti Donald Tramp Rossiyaga qarshi sanksiyalarni kuchaytirish ehtimoli haqida bayonot berdi, bu esa energetika bozorlarida noma'lumlikni oshirmoqda. Umuman olganda, ob-havo omillari, texnik cheklovlar va geosiyosiy vaziyat kombinatsiyasi Yevropa gaz bozoriga bosimni saqlab turmoqda.

Yangiliklar

Rossiya: Alfa-Bank korporativ mijozlar uchun «Multibank» xizmatini ishga tushirdi

Alfa-Bank yangi «Multibank» xizmatini taqdim etdi, bu korporativ mijozlarga turli banklardagi hisoblarini yagona raqamli platforma orqali boshqarish imkonini beradi. Xizmat ERP tizimlari va fintech hamkorlari bilan integratsiya qilingan bo'lib, balans va tranzaksiyalar tarixiga qulay kirishni ta'minlaydi. Kelajakda Alfa-Bank interfeysidan to'g'ridan-to'g'ri to'lov topshiriqlarini yuborish imkoniyati qo'shilishi rejalashtirilmoqda.

Garanti BBVA blokcheyn asosidagi mobil bank xizmatini sinovdan o'tkazishni boshladi

Garanti BBVA mobil ilovaga blokcheyn yechimini joriy etmoqda, bu tranzaksiyalarning shaffofligi va xavfsizligini ta'minlab, mamlakat ichidagi banklararo o'tkazmalarni tezlashtiradi.

BNP Paribas Parijda innovatsion markaz ochdi

BNP Paribas Parijda bank sektori uchun sun'iy intellekt va mashinani o'rganish sohalarini rivojlantirishga qaratilgan yangi innovatsion markazini ishga tushirdi. Markaz katta ma'lumotlarni tahlil qilish, moliyaviy xizmatlarni shaxsiylashtirish hamda mijozlarga xizmat ko'rsatishni avtomatlashtirish bo'yicha loyihalar ustida ishlaydi. Maqsad – mijozlarga xizmat sifatini va tezligini oshirishdir.

Agricultural Bank of China mobil banking uchun biometrik himoyani yaxshiladi

Iyul oyida bank yuzni va barmoq izini aniqlash bo'yicha ilg'or texnologiyalarni joriy etib, mobil tranzaksiyalar xavfsizligini oshirdi va firibgarlik holatlarining kamayishiga erishdi.